O‘ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY HISOBOTLARINI EKONOMETRIK TAHLILIDA MODELLASHTIRISHNING QO‘LLASH.

Jumabaeva Gulmiyra
Qoraqalpoq Davlat universiteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi stajyor o'qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21239783

Annotatsiya. *Ushbu maqolada moliyaviy hisobot tahlilida ekonometrik modellashtirishning ahamiyati va qo‘llanilish usullari tahlil qilinadi. Moliyaviy ma’lumotlarni aniq baholash va prognozlash uchun ekonometrik modellar samarali vosita sifatida foydalaniladi. Tadqiqot davomida moliyaviy tahlilda qo‘llaniladigan asosiy ekonometrik modellarning afzalliklari va ularning amaliy qo‘llanilishi yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *moliyaviy hisobot, ekonometrik modellashtirish, tahlil, regressiya, prognozlash.*

Аннотация. *В данной статье анализируется значение и методы применения эконометрического моделирования при анализе финансовой отчетности. Эконометрические модели используются как эффективный инструмент точной оценки и прогнозирования финансовых данных. В ходе исследования выделены преимущества основных эконометрических моделей, используемых в финансовом анализе, и их практическое применение.*

Ключевые слова: *финансовая отчетность, эконометрическое моделирование, анализ, регрессия, прогнозирование.*

Annotation. *This article analyzes the importance and methods of application of econometric modeling in financial statement analysis. Econometric models are used as an effective tool for accurate assessment and forecasting of financial data. The study highlights the advantages of the main econometric models used in financial analysis and their practical application.*

Keywords: *financial reporting, econometric modeling, analysis, regression, forecasting.*

Kirish.

Moliyaviy hisobot tahlili korxona yoki tashkilotning moliyaviy barqarorligini aniqlash, investitsion qarorlarni qabul qilish hamda biznes jarayonlarini samarali boshqarish uchun muhim vositadir. An’anaviy tahlil usullari bilan bir qatorda, ekonometrik modellashtirish moliyaviy ma’lumotlarni chuqurroq o‘rganish va aniq prognozlar qilish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlarni an’anaviy tahlil usullari bilan bir qatorda, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ekonometrik modellashtirish usullaridan keng foydalanilmoqda. Ekonometrik modellar moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqliklarni aniqlash, ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni baholash hamda kelgusidagi moliyaviy natijalarni prognozlash imkonini beradi. Bu esa moliyaviy risklarni kamaytirish, investitsion jozibadorlikni baholash va strategik rejalashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotlar asosida qurilgan ekonometrik modellar yordamida daromadlar, xarajatlar, foyda, aktivlar va majburiyatlar dinamikasi tahlil qilinib, ularning o‘zaro ta’siri ilmiy

jihatdan asoslab beriladi. Ayniqsa, regressiya tahlili, korrelyatsiya, vaqt qatorlari modellarining qo‘llanilishi moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan, moliyaviy hisobotlarni ekonometik tahlilida modellashtirishning qo‘llanilishini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu korxonalar moliyaviy faoliyatini chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodiyotda axborotga asoslangan boshqaruv tizimlari korxonalar faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omilga aylanib bormoqda. Ayniqsa, moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladigan ko‘rsatkichlarning haqqoniyligi va ularni tahlil qilish darajasi korxonaning real moliyaviy holatini baholashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois moliyaviy ma’lumotlarni faqat tavsifiy emas, balki matematik va statistik yondashuvlar asosida o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ekonometrik modellashtirish moliyaviy hisobotlar ma’lumotlarini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi samarali ilmiy vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali moliyaviy ko‘rsatkichlarning ichki tuzilmasi, ularning o‘zgarish tendensiyalari hamda tashqi va ichki omillarga bog‘liqligi aniqlanadi. Natijada korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy nomutanosibliklar va xavf omillarini oldindan aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Moliyaviy hisobotlarni ekonometik tahlil asosida modellashtirish, ayniqsa, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, foyda shakllanish mexanizmini o‘rganish hamda moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday modellar asosida qabul qilingan qarorlar subyektiv fikrlardan holi bo‘lib, aniq hisob-kitoblarga tayangan holda shakllantiriladi.

Shuningdek, ekonometrik modellar moliyaviy jarayonlarni prognozlashda ham keng qo‘llaniladi. Bu esa korxonalar uchun qisqa va uzoq muddatli rejalashtirishni samarali tashkil etish, investitsion qarorlar qabul qilish va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy hisobotlarni ekonometik tahlilida modellashtirishning qo‘llanilishini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada ekonometrik modellar va ularning moliyaviy hisobot tahlilida qanday qo‘llanilishi o‘rganiladi.

Metodologiya.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish har doim katta ahamiyatga ega bo'lgan. Moliyaviyhisobotshakllariga kiritilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxona samaradorligini aniqlashga imkonberadi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi moliyaviy hisobotlarni chuqur tahlil qilish va ularning ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqliklarni aniqlashga qaratilgan zamonaviy ekonometrik usullarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tizimli yondashuv asosida o‘rganish, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash hamda ilmiy xulosalar chiqarish metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotda korxonalarning moliyaviy hisobotlari, xususan balans hisoboti, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot va pul oqimlari hisobotlari asosiy axborot manbai sifatida olinadi. Ushbu ma’lumotlar asosida daromadlar, xarajatlar, sof foyda, aktivlar, majburiyatlar va kapital kabi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar shakllantirilib, ularning dinamikasi va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Moliyaviy hisobotlarni ekonometrik tahlil qilishda quyidagi asosiy metodlardan foydalaniladi: iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash va guruhlash usullari, korrelyatsiya va regressiya tahlili, vaqt qatorlari modellari hamda prognozlash usullari. Xususan, ko‘p omilli regressiya

modellari yordamida moliyaviy natijalarga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi va ularning ta’sir darajasi baholanadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ekonometrik modellarning ishonchliligini tekshirish maqsadida statistik mezonlar – determinatsiya koeffitsienti (R^2), Fisher va Styudent mezonlari, qoldiqlar tahlili hamda avtoregressiv bog‘liqlikni aniqlash testlaridan foydalaniladi. Model parametrlarining barqarorligi va adekvatligi baholanib, natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotda qo‘llaniladigan metodologiya moliyaviy hisobotlar asosida korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholash, risklarni aniqlash va kelgusidagi moliyaviy natijalarni prognozlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv amaliy jihatdan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, investitsion tahlil va strategik rejalashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilishning dolzarbligi moliyaviy tahlil natijalarikorxonaning moliyaviy holati ko'rsatkichlarini, shu jumladan uning moliyaviy barqarorligi, to'lovqobiliyatini aniqlashga, faoliyatning ma’lum bir nuqtasida ham, dinamikada hammulkiyholatinibaholashga imkon berishi bilan asoslanadi. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish, qoida tariqasida, moliyaviy xususiyatga ega bo'lganvatashkilotning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish holati va samaradorligini baholash, shuningdekuning faoliyatini optimallashtirish yoki unda ishtirok etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabulqilish uchun mo'ljallangan tahliliy ma'lumotlar to'plamidir[1].

Maqolada moliyaviy tahlil uchun quyidagi ekonometrik modellar qo‘llanildi:

Regressiya tahlili – moliyaviy ko‘rsatkichlar va ularning o‘zgarish omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.

Vektor autoregressiya (VAR) – vaqt oralig‘ida moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish.

Panel ma’lumotlar modellashtirish – turli kompaniyalarning moliyaviy natijalari bo‘yicha tahlil o‘tkazish.

ARIMA modeli – moliyaviy ko‘rsatkichlarning kelajakdagi qiymatlarini prognozlash.

Tadqiqotda O‘zbekiston bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning 2018–2023 yillardagi moliyaviy hisobot ma’lumotlari asos sifatida olindi.

Natijalar.

Moliyaviy hisob — bu rasmiy hisob turi bo‘lib, uni yuritish mulkchilikning va biznesni yuritishning shaklidan qat’i nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy hisoblanadi. U qabul qilingan tartib-qoida, talablar va andozalar asosida tashkil etilmog‘i lozim. Moliyaviy hisobni tashkil etish respublikaning hisob sohasidagi milliy siyosati o‘z aksini topgan «Buxgalteriya hisobi to ‘g‘risida»gi Qonun va «Buxgalteriya hisobi milliy andozalari» talablari asosida amalga oshiriladi va ular uni boshqarish hamda tashkil etish tizimining asosi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya (shu jumladan, moliyaviy hisob) hisobi ahamiyatining oshishi, birinchidan, buxgalteriya hisobi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishning ajralmas boMagiga aylangan bo‘lsa, ikkinchidan, turli xil foydalanuvchilarni hisob ma’lumotlari bilan ta’minlash markaziy masalalaridan biriga aylanganligi, uchinchidan, zamonaviy buxgalter faqatgina hisob ishlarini yuritibgina qolmay, balki buxgalteriya maiumotlarini tahlil qilish, korxona iqtisodiy holatini tavsiflovchi turli xil ko‘rsatkichlarni hisoblash, xo‘jalik jarayonlariga baho berish, korxona istiqbolini belgilay olishi kerak. Bundan tashqari zamonaviy buxgalter auditorlik faoliyati bilan ham shug‘ullana olishi lozim[3].

Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

— Regressiya modeli moliyaviy ko‘rsatkichlar va korxona rentabelligi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini aniqladi.

— Vektor autoregressiya (VAR) modeli bo‘yicha likvidlik va daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

— ARIMA modeli kelgusi uch yil davomida sof foydaning o‘sishini prognoz qilish imkonini berdi.

— Panel ma’lumotlar tahlili kompaniyalar o‘rtasidagi moliyaviy tafovutlarni aniq ko‘rsatdi.



1-rasm. Moliyaviy ko‘rsatkichlar



2-rasm. VAR modeli: Likvidlik va daromad bog‘liqligi.



3-rasm. ARIMA prognozi: Kelgusi yillarda sof foyda o‘sishi.



4-rasm. Panel tahlil: Kompaniyalar moliyaviy tafovutlari.

Muhokama.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekonometrik modellashtirish moliyaviy hisobot tahlilida yuqori samaradorlikka ega. Ushbu usullar kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish va kelajakdagi moliyaviy natijalarni prognoz qilish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, tahlil natijalarining aniqligi to‘g‘ri model tanloviga bog‘liq bo‘lib, statistik xatoliklarni kamaytirish uchun ma’lumotlar to‘plami to‘g‘ri tanlanishi va optimallashtirilishi lozim. Kelajakda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalanish moliyaviy tahlil samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

Iqtisodiyotda ekonometrik modellashni qo’llash iqtisodiy-matematik modellashtirish ko’rinishida amalga oshiriladi. Iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida u yoki bu haqiqiy iqtisodiy jarayon ifodalanadi. Bunday model faqat iqtisodiy jarayonni mohiyatini chuqur nazariy izlanishlar va tushunib etish asosida tuzilishi mumkin. Faqat shundagina matematik model haqiqiy iqtisodiy jarayonga to’g’ri kelishi, uni obyektiv ifodalashi mumkin. Ekonometrik modelni tuzishga yondashish induktiv va deduktiv bo’lishi mumkin. Modellashtirishda induktiv usuldan foydalanganida u yoki bu iqtisodiy jarayonning modeli iqtisodiy jarayonning sodda o’zgaruvchilarini qamrab olgan xususiy modellashtirish yordamida tuziladi, undan butun jarayonni umumiy modeliga o’tiladi. Deduktiv usulda dastavval umumiy model tuziladi va faqat uning asosida xususiy modellar yaratiladi, aniq matematik hisob-kitoblar algoritmi belgilanadi[2].

Xulosa.

Moliyaviy hisobot tahlilida ekonometrik modellashtirishni qo‘llash natijalarning aniqroq bo‘lishiga, tahlil jarayonining tezlashishiga va prognozlash imkoniyatlarining kengayishiga yordam beradi. Ushbu usullar kompaniyalar va investorlar uchun muhim bo‘lib, moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ishonchli vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tuzish bo‘yicha me’yoriy hujjatlari.
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS).
6. Babadjanov Abdirashid Musayevich. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda uzluksizlik va ketma ketlik. IQRO jurnali 2023.
7. Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. Ekonometrik modellashtirish. O’quv qo’llanma. Toshkent – 2019.
8. D.Xolboyev, U.N.Ibragimov. Moliyaviy hisob. O’quv qo’llanma. Toshkent – 2016.
9. Babadjanov A. Future Priority Directions of Research in the Agrarian Sphere and Improvement oftheir Financing System. American Journal of Economics and Business Management. ISSN: 2576-5973. Vol. 4, No. 10, 2021. – Pp. 15-26.
10. Saviskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti. - Minsk-Moskva, IP Ekoperspektiva, 2012.
11. Gavrilova A.N. Finansi organizasiy (predpriyatiy): Uchebnik / A.N. Gavrilova, A.A. Popov. – Moscow. Knorus, 2017. – 608 p.